

TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLAR NUKSONLARI NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASHNING KOLLIZION TARTIBGA SOLINISHI

Salimova Nozanin Muxtorjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari magistratura bosqichi talabasi

Abstract: *This annotation explores the conflict of laws (private international law) mechanisms governing the compensation for damages arising from defects in goods, works, and services. It examines key principles such as *lex loci delicti* (law of the place where the tort occurred), *lex loci contractus* (law of the place where the contract was made), and party autonomy in choice-of-law clauses. The discussion highlights international conventions like the Rome II Regulation (EU) and the Hague Convention on Products Liability, addressing jurisdictional issues, applicable law determination, and cross-border enforcement of judgments. Emphasis is placed on consumer protection, harmonization efforts, and challenges in global supply chains, providing insights into resolving multinational disputes efficiently.*

Keywords: *Conflict of laws, product liability, damages compensation, defective goods, works and services, private international law, choice-of-law, Rome II Regulation, consumer protection, cross-border disputes.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola tovarlar, ishlar va xizmatlar nuqsonlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning kollizion mexanizmlarini o'rganadi. Unda *lex loci delicti* (huquqbuzarlik sodir bo'lgan joy qonuni), *lex loci contractus* (shartnoma tuzilgan joy qonuni) va tomonlar avtonomiyasi kabi asosiy tamoyillar ko'rib chiqiladi. Muhokama Rim II Reglament (Yevroittifoq) va Gaaga Mahsulot javobgarligi konvensiyasi kabi xalqaro konvensiyalarni qamrab oladi, yurisdiksiya masalalari, qo'llaniladigan qonunni aniqlash va transchegaraviy sud qarorlarini ijro etishni ta'kidlaydi. Tovarlar ta'minot zanjirlaridagi global muammolar, iste'molchilarni himoya qilish va garmonizatsiya harakatlari alohida e'tiborga olinadi, ko'p millatli nizolarni samarali hal qilish bo'yicha tushunchalar beradi.*

Kalit so'zlar: *Kollizion huquq, mahsulot javobgarligi, zarar qoplash, nuksonli tovarlar, ishlar va xizmatlar, xususiy xalqaro huquq, qonun tanlash, Rim II Reglament, iste'molchilarni himoya qilish, transchegaraviy nizolar.*

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi va boshqa ko'pgina mamlakatlarning qonunchiligida tovarlar, ishlar va xizmatlar nuqsonlari natijasida yetkazilgan zararni maxsus delikt sifatida e'tirof etiladi hamda o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1017-moddasi 1-qismiga ko'ra "Tovarning (ishning, xizmatning) konstruktiv, retsepturaviy yoki boshqa nuqsonlari oqibatida, shuningdek tovar (ish, xizmat) to'g'risidagi ma'lumot noto'g'ri yoki yetarli zmasligi oqibatida fuqaroning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yexud yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi yoki tayerlovchi (ijrochi) tomonidan, ularning aybidan va jabrlanuvchi ular bilan

shartnoma munosabatlarida bo'lgani yoki bo'lmaganidan qat'i nazar, qoplanishi lozim". Mazkur tur maxsus deliktlarning asosiy maqsadi bo'lib iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Buni Fuqarolik kodeksining 1017-moddasida kuzatishimiz mumkin. Xususan, mazkur moddaning 2-qismida "Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar tovarni (ishning bajarilishi, xizmatning ko'rsatilishi) tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun emas, balki iste'mol maqsadlari uchun sotib olingan hollardagina qo'llaniladi". Shu bois ham jahon huquqiy amaliyotida mazkur tur deliktlar "iste'molchi" deliktlar deb e'tirof etiladi.

Zamonaviy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotining tahliliga ko'ra iste'molchi deliktlar xalqaro xususiy huquqda ham maxsus deliktlar toifasiga kiritilgan. Mazkur tur deliktning alohida kollizion tartibga solinishiga u bilan bog'liq bo'lgan alohida kollizion muammolar va mazkur sohaning iqtisodiy ahamiyati kabi omillarga bog'liq. Olib borilgan tahlilga asoslangan holda xulosaga keladigan bo'lsak iste'molchi deliktlarni samarali kollizion tartibga solinishi quyidagi masalalarni xalq etishni nazarda tutadi va takozo etadi:

- iste'molchi delikt bilan bog'liq bo'lgan joyni aniqlash muammosi;
- iste'molchi huquqlarining xalqaro darajada himoya etilishini ta'minlash;
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish ishlab chiqaruvchilarning va tadbirkorlarning faoliyatlariga asossiz to'sqinlik qilishining oldini olish.

Mazkur taxlilini iste'molchi deliktning sodir etilgan joyini aniqlash masalasidan boshlaymiz. Tadqiqotning oldingi kismlarida ko'rib chikilganidek, xozirgi vaqtda deliktlarni kollizion tartibga solishda lex loci delicti kollizion bog'lovchisini qo'llash an'anaga aylangandir. Unga ko'ra delikt sodir etilgan joyning huquqi qo'llaniladi.

Lekin, ko'rib chikilganidek, shunday xolatlar uchrashi mumkinki, zararining kelib chiqishiga sababli bo'lgan xarakatlar bir davlatda, va zararli oqibatlar ikkinchi davlatda vujudga keladi. Bunday deliktlar xalqaro xususiy huquqning doktrinasida intra-natsional deliktlar deb ataladi.

Aytib o'tish joyizki, xalqaro iste'molchi deliktlarni aynan shu toifa deliktlarga kiritish mumkindir, chunki, ko'p xollarda tovarlar bir davlatda ishlab chiqariladi, va boshqa davlatda iste'mol kilinadi. Shunday ekan, tovar ishlab chiqarilishi bu yerda zarar yetkazish bo'yicha xarakatlarni tashqil etadi, va iste'mol qilish natijasida sogligiga yoki mulkiga zarar yetkazilishi zararli oqibatlarning kelib chiqishini tashqil etadi.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi, va boshqa ko'pgina davlatlarning qonunchiligiga ko'ra iste'molchi deliktning yana bir tarafi sifatida sotuvchi ham ishtirok etishi mumkindir. Yuqorida kursatilganidek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1017-moddasi 1-kismda ko'rsatilishicha, «... yetkazilgan zarar sotuvchi yoki tayerlovchi (ijrochi) tomonidan... qoplanishi lozim».

Xozirgi zamon bozor tizimlarida ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlarini dillerlar orkali sotishlarini inobatga olgan xolda, aytish mumkinki, bu xolat iste'molchi deliktlarni kollizion tartibga solinishini yanada murakkablashtiradi, chunki deliktning yana bir sodir eilishi joyi – uning sotilishi joyi ham inobatga olinishi zarur bo'ladi. Misol uchun, World-

Wide Volkswagen Corp. v. Woodson sud ishida iste'molchi deliktining kollizion tartibga solinishi masalasi ko'rib, bu yerda tovar Germaniyada ishlab chiqarilgan bo'ladi, AQShning Nyu York shtatida sotib olingan, va zarar Oklaxoma shtatida yetkaziladi.

Shunday ekan, lex loci delicti tamoyilidan kelib chikkan xolda uch delikt sodir etilishi joyini ko'rsatish mumkindir: (1) tovar ishlab chiqarilgan davlat, (2) tovar sotilgan davlat, i (3) zarar kelib chikkan davlat.

Lekin, iste'molchi deliktlarning xalqaro kollizion tartibga solinishi tajribasi shuni ko'rsatadiki, lex loci delicti-ni taxlil qilishi natijasida keltirib chiqarilgan mazkur kollizion bog'lovchilarning ruyxati samarali natijalarga erishish imkonini bermaydi. Piter Xeyning (Peter Hay) ta'kidlashicha, "xarakatlarning sodir etilishi joyini yoki zarar yetkazilishi joyini, yoki ayni vaqtda ikkalasini nazarda tutuvchi standart qoida iste'molchi deliktlarning kollizion tartibga solishning talablariga javob bera olmaydi, buning sababi bo'lib tovar xarid qilingan xar bir davlatda o'ziga xos standartlarning mavjud bo'lishi, iste'molchi turar joyining standartlariga binoan kompensatsiya qilish muammolari, oldindan ko'ra bilmaslikni oldini olish kabi muammolarga olib kelishi xisoblanadi". Shunday qilib, uning xisoblashicha, an'naviy lex loci delicti qoidasi iste'molchi deliktlarni kollizion tartibga solishning aloxida extiyojlari mavjud bo'lganligi sababli, to'gri kelmasligini aytadi.

Misol uchun, tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni olaylik. Agar tovar tulik bitta ishlab chiqaruvchi tomonidan yasalgan bo'lsa, bunday xolda lex loci delicti qoidasiga ko'ra korxonalar joylashgan davlatning huquqi qo'llanilishi kerak. Lekin, Devid Keivzning (David Caves) aytishicha, "ishlab chiqarish joyi ko'rib chikilar ekan, savol tugiladiki, tovarning detallari yasalgan joy ishlab chiqarish joyi xisoblanadimi, yoki, mazkur detallar joyimi?".

Shuning uchun, ko'p zamonaviy tovarlarning, misol uchun, komyuterlarning, detallari bir ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilsada, boshqa shlab chiqaruvchi o'z navbatida mazkur detallardan yanada murakkab detalni, yoki, tovarni ishlab chikaradi. Shunday ekan, bunday xolda aynan qaysi ishlab chiqaruvchining aybdorligini aniqlash va shuningdek, tovar aynan qaerda ishlab chiqarilganini ham aniqlash mushkul masala bo'lib kolishi mumkin. Shunday ekan, Devid Keivzning aytishicha, "xozir vaqtda xech kim inkor eta olmaydiki, ishlab chiqarish joyini nazarda to'tish muammolidir".

Shuningdek, misol uchun Saymonidsning (Symeonides) aytishicha, iste'molchi qaerda zarar ko'rganligini aniqlash ham bir qator muammolarni keltirib chikaradi. U aytadiki, misol uchun zararli farmasevtik dorilarni iste'mol kilgan taqdirda ularning zararli oqibatlarini faqat bir kancha vaqt utganidan keyin namoyon bo'ladi, va bu vaqt ichida ba'zilar iste'molchi bir necha davlatda yashab ulgurishi mumkindir.

Shuningdek Saymonids ta'kidlaydiki, tovrning sotilishi joyini nazarda to'tish shunday oqibatlarga olib kelishi mumkinki, tovarni aslida kim sotib olgani, iste'molchimi yoki boshqa shaxsmi, va ular o'rtasidagi shartnomaning shartlari qanday bo'lganligini aniqlash kiyin bo'lib koladi.

Shunday qilib, ko'rib turganimizdek, *lex loci delicti*dan kelib chiqadigan kollizion bog'lovchilarni qo'llash bir qator murakkabliklarga olib kelishi mumkindir.

Iste'molchi deliktlarni kollizion tartibga solishning ikkinchi murakkab jixati uni tartibga solishning iqtisodiy va ijtimoiy o'ziga xosliklaridan iboratdir. Xalqaro iste'molchi deliktlarni kollizion tartibga solish masalalarini urganar ekan, Saymonidsning aytishicha "xalqaro xususiy huquq, moddiy huquq kabi, ma'lum moddiy natijalarga erishishga qaratilgan normalardan ham iborat bo'lishi mumkindir, va bu ayniksa nisbatan zaif tarafni himoya qilish zarur bo'lgan xollarda namoyon bo'ladi".

Shunday qilib u ko'rsatib o'tadiki, iste'molchi deliktlarning xalqaro xususiy huquqda tartibga solinishi o'xshash moddiy maqsadlarni – iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi, va shunday ekan, u aytib o'tadiki, mazkur tur kollizion tartibga solishda davlatning asosiy maqsadi bo'lib, iste'molchilarning o'z davlatida va chet davlatda ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'mol qilishlarida bir xilda himoya etilishlarini ta'minlash.

O'xshash nuktai nazarni Piter Xey bildiradi va uning aytishicha "xalqaro xususiy huquqning barcha tizimlarida, iste'molchi deliktlarni kollizion tartibga solish masalasida, ularning asosiy diqqati, bir xil imtiyozlar taqdim etilishini ta'minlash maqsadida iste'molchilarga qaratilgandir".

Shunday qilib, iste'molchi deliktlarni tartibga soluvchi kollizion bog'lovchilarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular deliktlarni kollizion tartibga solish bo'yicha umumiy fuqarolik-huquqiy maqsadlarni ko'zlamagan xolda, balkim davlatning iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi maqsadlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir. Misol uchun iste'molchi deliktlar no-kollizion tartibga solinishida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikning asosiy maqsadi bo'lib faqat iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'lmay, balkim o'z navbatida bunday himoya qilishning haddan ziyod bo'lib ketishini oldini olish, va shu yo'sinda tadbirkorlikni rag'batlantirish ham kiradi. Bunda, iste'molchilar tovarlarning ahamiyatsiz bo'lgan kamchiliklari tufayli ham da'volarning kelib chiqishiga sabab bo'lib qolmasligi kerak. Shunday ekan, bunda iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari muvozanatlangan bo'lishi kerakdir.

Xalqaro xususiy huquqda mazkur muvozanatni ta'minlash yanada mushkul masala xisoblanadi. Misol uchun, Yaponiyalik huquqshunos Toshuyuki Kononing (Toshiyuki Kono) aytishicha, tovar ishlab chiqaruvchilar bunday munosabatlarda nisbatan kuchliroq taraf bo'lib hisoblansalarda, va shundan kelib chikkan xolda absolyut afzallikni iste'molchi davlatining huquqini qo'llashga berish mumkin bo'lsada, chunki bunday huquqni qo'llash iste'molchi uchun qulay bo'ladi, va o'zini-o'zi himoya qilishi osonroq bular edi. Lekin, uning ta'kidlashicha, bunday holat ishlab chiqaruvchilar tomonidan eksport qilinishi mo'ljallanayotgan har bir davlatning huquqini o'rganib chiqishga, va tovarlarini mazkur huquq talablariga moslashtirishga majbur qilgan bular edi. Lekin, bunday xar bir huquqni taxlil qilish, va tovarlarini moslashtirish o'z navbatida ko'p xarajatlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

Dointjer Tebbens. *International Product Liability: a Study of Comparative and International Legal Aspects of Product Liability*. T.M.C. Asser Institute. Hague, 1979.

Michael I. Krauss. *Product Liability and Game Theory: One More Trip to the Choice-of-Law Well*. *BYU L. REV.* 759, 775-76 (2002).

Toshiyuki Kono. *Critical and Comparative Analysis of the Rome II Regulation on Applicable Laws to Non-contractual Obligations and the New Private International Law of Japan*.

Symeon C. Symeonides. *The Quest for the Optimum in Resolving Product Liability Conflicts*.

Peter Hay. *Contemporary Approaches to Non-Contractual Obligations in Private International Law (Conflict of Laws) and the European Community's "Rome II" Regulation*.

David F. Caves. *The Proper Law of Producers' Liability*. *Contemporary Problems in the Conflict of Laws*

World-Wide Volkswagen Corp. v. Woodson, 444 U.S.